

20-May, 2025-yil

**TAGCHARM IZLARINING TRASOLOGIK EKSPERTIZASI O'TKAZISH
BO'YICHA XORIJIY TAJRIBA**

*O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
Kriminalistik ekspertizalar kafedrası o'qituvchisi*

Gulamov Sunnatali Sunnatali o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi kursati

Voxobjonov Avazbek Alisher o'g'li

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Ichki ishlar organlarining xodimlari kuni” munosabati bilan yo'llagan tabrigida ta'kidlaganidek, “ ... bugungi kunda ichki ishlar organlari uchun professional kadrlar tayyorlash bo'yicha samarali tizim yaratilayotgani, sohada o'z burchi va qasamyodiga sodiq, vatanparvar va xalqparvar xodimlar soni ko'payib borayotganini islohotlarimizning eng muhim natijasi sifatida qabul qilamiz. Shiddat bilan o'zgarayotgan bugungi murakkab zamonda dunyoning turli mintaqalarida hukm surayotgan notinch vaziyatlar, qurolli to'qnashuvlar har birimizni doimo hushyor va ogoh bo'lishga undaydi. Bunday sharoitda uyushgan transmilliy jinoyatchilik, terrorizm va ekstremizm, narkobiznes, korrupsiya kabi tahdidlarga qarshi samarali kurashish, ularga keskin zarba berish tobora dolzarb ahamiyat kasb etadi”¹. Shu nuqtai nazardan, hozirgi kunda chop etilayotgan har bir darslik, o'quv qo'llanma yosh avlodning huquqiy, ma'naviy-ma'rifiy bilimini oshirish, ularni har tomonlama barkamol inson bo'lib yetishishlari uchun o'z hissasini qo'shmoqda. “Trasologik ekspertiza” darsligining qayta nashrdan chiqarilishi ichki ishlar organlarining ekspert-kriminalistika xizmatlari uchun malakali mutaxassislarni tayyorlash hamda yuqorida keltirilgan vazifalarni bajarishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

Darhaqiqat, jinoyat sodir etgan shaxslarni fosh etishga va jazolashga qaratilgan jinoiy sud amaliyoti masalalarining hal etilishi har bir jinoyat ishi bo'yicha haqiqatni tiklash bilan bog'liqdir. Jinoyat hodisasini har tomonlama tadqiq etish orqali unga aloqador bo'lgan barcha shaxslarning o'rni hamda jinoyat sodir etish shart-sharoitlarini yetarli darajada ishonchli fosh etish mumkin. Jinoyatchilar tomonidan sodir etilgan harakatlar atrofmuhitda o'ziga xos ravishda qolgan izlarda ifodalanadi. Jinoyatlarni tergov qilishda isbot manbaining asosi bo'lib xizmat qiladigan bunday izlar kriminalistika fanida moddiy izlar deb ataladi. Moddiy izlarni topish, qayd etish va tadqiq etish usullarining ilmiy tadqiq etilishi, tabiiy va texnik fanlarning zamonaviy yutuqlari asosida izlarning hosil bo'lish qonuniyatlarini tahlil qilish “izlar to'g'risidagi kriminalistik ta'limot yoki trasologiya” kabi mustaqil bo'lgan kriminalistik texnikaning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi.

“Trasologik ekspertiza” o'quv fani Respublikasi O'zbekiston IIV Akademiyasida ichki ishlar organlari uchun ekspert-kriminalist mutaxassislarni tayyorlash dasturi doirasida o'qitiladi. Ushbu fan dasturida umumilmiy qoidalar, turli izlar va obyektlarni tadqiq etishning aniq usul va uslublari o'z aksini topgan. Shu nuqtai nazardan, darslikda

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning “Ichki ishlar organlari xodimlari kuni” munosabati bilan tabrigi // <https://iiv.uz/news/>.

20-May, 2025-yil

trasologiyaning umumiy tushunchalar apparati, trasologik ekspertizaning tarixi yoritilgan bo‘lib, undagi mavzularni o‘rganish bo‘lajak ekspertkriminalistlarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirib, trasologik ekspertiza obyektlari va ularni tadqiq etish orqali hal etiladigan masalalar to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lishga imkon beradi.

XORIJIY TAJRIBA: tagcharm izlarining trasologik ekspertizasi o‘tkazish bo‘yicha xorijiy tajriba: Tagcharm izlarining trasologik ekspertizasi jinoyatlarni tergov qilishda muhim ahamiyatga ega. Bu ekspertiza turi jinoyat joyida qoldirilgan tagcharm izlari yordamida jinoyatchining shaxsini aniqlashga yordam beradi. Ushbu diplom ishi tagcharm izlarining trasologik ekspertizasi o‘tkazish bo‘yicha xorijiy tajribalarni tahlil qilishga bag‘ishlangan.

Tagcharm izlarini taqqoslash va identifikatsiya qilish:

Taqqoslash

Jinoyat joyida topilgan tagcharm izlari bilan ma‘lumotlar bazasidagi tagcharm izlari yoki guvohlarning taqdim etgan ma‘lumotlariga asoslangan tagcharm izlari taqqoslanadi.

Identifikatsiya

Agar tagcharm izlari mos keladigan bo‘lsa, u holda jinoyatchining shaxsini aniqlash mumkin bo‘ladi

Hujjatlashtirish

Taqqoslash va identifikatsiya jarayonlari hujjatlashtiriladi va sud majlisida ishlatilishi mumkin bo‘lgan dalillar yaratish uchun xizmat qiladi.

Tagcharm izlarini ekspertizadan o‘tkazishning zamonaviy texnologiyalari

1.3D skanerlash:

3D skanerlash texnologiyasi yordamida tagcharm izlarining aniq va batafsil 3D modellari yaratish mumkin.

2.Raqamli tasvirlash:

Raqamli tasvirlash texnologiyasi tagcharm izlarining tasvirlarini tahlil qilish imkonini beradi, shu jumladan, ularning chuqurligi, shakli va o‘lchamlarini aniqlash

3.Ma‘lumotlar bazasi

Katta ma‘lumotlar bazalari tagcharm izlarini aniqlash va taqqoslashni osonlashtiradi.

Tagcharm izlarini ekspertizadan o‘tkazishning qiyinchiliklari

1.Tagcharm izlarining sifatsizligi

Yomon ob-havo sharoiti yoki yuzaning tuzilishi tufayli tagcharm izlari aniq bo‘lmasligi mumkin.

2.Tagcharm izlarining ko‘pligi

Jinoyat joyida ko‘plab tagcharm izlari mavjud bo‘lishi mumkin, ularni tahlil qilishni murakkablashtiradi

3.Ma‘lumotlar bazalarining cheklanganligi

Tagcharm izlari ma‘lumotlar bazalari har doim ham to‘liq bo‘lmasligi mumkin.

MUAMMO

1.Tagcharim izlarini faqat aniq bir shaxsga tegishli ekanligini isbotlash juda qiyin bo‘ladi. O‘xshash oyoq izlari yoki kichik farqlar tufayli, odamlarni bir xil izlar bilan bog‘lashda xato qilish mumkin.

20-May, 2025-yil

2. Ba’zan faqat tagcharim izlari yordamida jinoyatchini aniqlash mumkin emas, chunki ular aniq shaxsga to’g’ri kelmasligi yoki boshqa kishi tomonidan qoldirilgan bo’lishi mumkin.

3. Izlarni noto’g’ri saqlash yoki aniqlash. Agar izlar to’g’ri belgilanmasa yoki tayyorlanmasa, ular sudda foydasiz bo’lishi mumkin. Xususan, tabiiy sharoitlar (yomg’ir, qor, qum) izlarning o’zgarishiga olib kelishi mumkin.

TAKLIF

1 O’rganish va tahlil qilish metodlarining yangilanishi, masalan, 3D model yaratish yoki izlarni raqamli tarzda saqlash, izlarni aniqroq tahlil qilish imkonini beradi.

2. Bir necha tahlilchilar va mutaxassislarning hamkorligi masalan: genetika, kimyo va boshqa ilmiy sohalar yordamida izlarni tahlil qilish. Izlarni to’g’ri olish va tasdiqlash uchun maxsus treninglar, sertifikatlash tizimlari va boshqa huquqiy mexanizmlar tashkil qilish

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

Rahbariy adabiyotlar:

1.1 O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi PF-6196-sonli “Jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko’tarish chora-tadbirlari to’g’risida” gi Farmoni.

1.2 O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 yanvardagi PQ-4125-sonli “Sud-ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida” gi Qarori.

1.3 O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 15 aprel’dagi PQ-5076-sonli “Ichki ishlar organlari uchun professional kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish bo’yicha chora-tadbirlar to’g’risida” gi Qarori.

1.4 O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 18 apreldagi PQ-5050-sonli “Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo’yicha qo’shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to’g’risida” gi Qarori.

1.5 SH.M.Mirziyoyev “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.”- T: “O’zbekiston”. 2017 y.

1.6 SH.M.Mirziyoyev “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.”- T: “O’zbekiston”. 2017 y.

1.7 SH.M.Mirziyoyev “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.”- T: “O’zbekiston”. 2017 y.

1.8 O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 apreldagi PQ-2898-sonli “Ichki ishlar organlarining jinoyatlarni tergov qilish sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida” gi Qarori.

1.9 O’zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2019 yil uchun mo’ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.;

20-May, 2025-yil

1.10 I.A. Karimov. YUksak ma'naviyat — yengilmas kuch. - Toshkent “Ma'naviyat” 2008 y.;

1.11 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev raisligida 2017 yil 9 fevral' kuni o'tkazilgan IIO faoliyati tizimida mavjud muammo va kamchiliklar, istiqboldagi vazifalarga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi.;

Qonunlar va normativ hujjatlar:

2.1 O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – 2020 y.;

2.2 O'zbekiston Respublikasining Jinoyat–protsessual kodeksi (2021 yil 13 fevralgacha bo'lgan o'zgartish va qo'shimchalar bilan qayta nashri). Rasmiy nashr – T., 2021 y. – 673 b.;

2.3 O'zbekiston Respublikasining “Ichki ishlar organlari to'g'risida”gi 2016 yil 16-sentyabrdagi O'RQ-407-sonli Qonuni.;

2.4 O'zbekiston Respublikasining 2010 yil 1 iyundagi «Sud ekspertizasi to'g'risida»gi qonuni. / O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – Toshkent, 2010 y. – 249–son. – 173–m.;

2.5 O'zbekiston Respublikasi IIV ning 2017- yil 18- iyundagi 107-sonli “Ekspert-malaka komissiyasi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risid a “ gi buyrug'i.

2.5 O'zbekiston Respublikasi IIV ning 2017-yil 18-iyundagi № 108-sonli “O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar organlari Ekspert-kriminallistik xizmatlari ish faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi Yurionomani tasdiqlash to'g'risida” gi buyrug'i.

2.6 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mvxxkamasining 2011 yil 5 yanvardagi 5-sonli “Davlat sud-ekspertiza muassasasi yoki boshqa korxona, muassasa, tashkilot tomonidan sud ekspertizasini o'tkazish tartibi to'g'risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida”gi Qarori.